



## YOZUVNING XORIJIY TILNI (INGLIZ TILI) O'RGANISHDAGI ROLI

Jabborova Dilafro'z Ismatullo qizi

Qarshi Davlat universiteti tayanch doktoranti, Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida o'qituvchi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada xirijiy tilni (ingliz tili) o'rganishda yozuvning o'rni haqida fikr yuritilgan. Yozuvning kelib chiqish tarixi va yozuv haqidagi olimlarning qarashlari muhokama qilingan. Bundan tashqari, maqolada yozuv kompetensiyasi haqida munozara yuritilgan bo'lib, kompetensiya termini olimlarning fikrlari yordamida yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: yozuv, xorijiy til, yozuv kompetensiyasi, piktografik yozuv, ideografik yozuv, fonografik yozuv*

## РОЛЬ ПИСЬМА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК (АНГЛИЙСКИЙ)

Жабборова Дилафруз Исматулло қизи

Докторант Каришинского государственного университета

Преподаватель Каришинского инженерно-экономического института

*Аннотация: В данной статье рассматривается роль письма в изучении языка хириджи (английского). Обсуждается история возникновения письменности и взгляды ученых на письменность. Кроме того, в статье рассматривается письменная компетентность, а термин компетентность поясняется с помощью мнений ученых.*

*Ключевые слова: письмо, иностранный язык, письменная компетентность, пиктографическое письмо, идеографическое письмо, фонографическое письмо.*

## THE ROLE OF WRITING IN LEARNING FOREIGN LANGUAGE (ENGLISH)

Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi

PHD student of Karshi State University

Teacher at Karshi engineering-economics Institute

*Abstract: This article discusses the role of writing in learning the foreign language (English). The history of the origin of writing and the views of scholars about writing are discussed. In addition, the article discusses writing competence, and the term competence is explained with the help of scientists' opinions.*

*Keywords: writing, foreign language, writing competence, pictographic writing, ideographic writing, phonographic writing*

Kirish. Ingliz tilini o'qitish va o'rganish bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik masalalardan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda raqobatga tayyor bo'lishimiz kerak. Uchinchi renessans poydevorini mustahkam qilish uchun ham chet tillarini o'rganishni kuchaytirishimiz kerak. Qanday og'ir bo'lmasin, bu masala e'tiborda bo'lishi, urg'uni alohida berishimiz lozim" deb ta'kidlagan edi 2021-yil 6-mayda chet tillarini o'rganish masalasi muhokama qilingan yig'ilishda. Bundan tashqari Prezidentimiz chet tillarini o'rganish o'ta muhimligini e'tirof etgan holda maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida ikki tilni mukammal bilishi lozimligi haqida so'z yuritadi.

Tilni mukammal o'rganish uchun kuch, g'ayrat va shijoat bilan harakat qilish lozim. Vaholanki yoshlarimizga qo'yilgan talablarni bajarish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun ulardan ulkan sabr va mehnat talab etiladi. Marrani yuqori oldik va bundan hech qo'rmasdan ildam qadam tashlamog'imiz lozim. Yoshlarimiz, ularga yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda bir emas bir necha tillarni o'rganishlari talab etiladi.

Chet tillarini o'rganishga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilgan. Buni natijasi o'laroq bugungi kunda 25 ta oliygohda o'qitish chet tilida olib borilmoqda. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchilar soni 700 nafardan 7 ming nafarga etgan. Ushbu ko'rsatkich so'nggi uch yilga qaraganda 10 barobar oshgan. Bundan tashqari yoshlarimizning 60 ming nafari etakchi xorijiy oliygohlarda tahsil olmoqda. [1] Ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor talabalarning kelajakda etuk, o'z mutaxassisligi doirasida yuqori malakali, tajribali, ko'p ma'lumotga ega hamda raqobatbardosh kadr bo'lib etishishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi. Chet tillarini o'rganish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan va bu islohotlar o'z navbatida chet tillarini o'rganishda o'zgacha dunyo qarash va yangidan yangi usullarni yuzaga keltirmoqda. Bundan tashqari yurtimizda chet tillarini o'rganishni ommalashtirish borasidagi ko'plab qonunlar va qarorlar imzolanmoqda. Xususan ulardan 2021-yil 19-maydag'i PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra:

2021/2022 o'quv yilida xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalariga qabul parametrlari ikki baravarga, davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlari esa uch baravarga oshirildi;

2022/2023 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga tanlovlardacha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirot etishi tartibi joriy etilsin. Bunda, filologiya yo'naliishlari bo'yicha kamida S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'naliishlari bo'yicha esa B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etilishi nazarda tutilgan.[2]

Til o'rganishda yozuv muhim rol o'ynovchi vositalardan biri hisoblanadi. Inson yaralibdiki o'z ehtiyojini qondirish uchun turli xil kashfiyotlar yaratmoqda. Ular ichida tafsinga sazovor ishlardan biri – yozuvning kashf qilinishidir. Dastavval yozuv kashf qilinishidan oldin buyumlardan xotira sifatida foydalanishgan, ma'lumotni etkazish uchun hech

nima bo'limgan. Keyinchalik esa yozuv axborot almashish vositasiga aylangan. Bugungi kunda yozuvsiz hayotimizni tassavvur qilish qiyin, negaki har bir faoliyatimiz yozuv bilan bog'liq.

Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiyalaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400—500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4—5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki til (nutq)ning zamон va makон nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyat yozuv ning paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to'lqinlari etib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilarni tizimidan iborat yozuv dunyoga kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik harakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlsh zaruriyat bilan bevosita bog'liq.[3]

Muhokama va natija. Yozuv yillar osha turli xil bosqichlardan o'tib kelmoqda va shunga ko'ra uning bir nechta turlari mavjud. M.T Irisqulov yozuvni quyidagi turlari haqida "Tilshunoslikka kirish" nomli darsligida ma'lumot bergen:

Piktografik yozuv – jonli va jonsiz narsalarni rasmini chizish orqali ma'lumot almashish usuli. Bu atama ikki so'zdan iborat bo'lib lotincha pictus (chizilgan), grekcha grapho (yozaman) degan ma'noni anglatadi.

Ideografik yozuv – belgilarni chizish orqali ma'lumot almashish usuli. Bu atama ikki so'zdan iborat bo'lib lotincha pictus (chizilgan), grekcha grapho (yozaman) degan ma'noni anglatadi. Ayrim manbalarda logografik yozuv deb ham ataladi. Logografik yozuvning biroz mukammallahgan shakli esa iyeroglifik yozuv hisoblanadi.

Fonografik yozuv – so'zning nafaqat grammatik tuzilishini balki fonetik tuzilishini ham ifodalaydi ya'ni so'zning tovush tarkibini aks ettiradi. Bu atama grekcha bo'lib phone (tovush), grapho (yozaman) degan ma'noni anglatadi.[4]

Shu tariqa alifbolar (har bir davlatning o'z alifbosi bo'lib, muayyan o'zgarishlarni amalga oshirilgan) yaratilib, hozirgacha foydalanim kelinmoqda.

Yozuv ko'nikmasini har uchchala turidan moliya yo'nalihsilarining ingliz tili darslarida samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Masalan, piktografik yozuvlardan chet el valyutalarning maxsus belgilari, kurlarning real vaqt rejimida o'zgarishi, yalpi ichki maxsulot ko'rsatkichlarida juda muhim omil sanaladii. Bundan tashqari talabalarga vizual vositalarni orqali o'rgatish samarali ekanligini bir necha bor isbotlangan. Ideografik yozuvlar esa har bir kompaniyaning "tashrif qog'oz" hisoblanib butun dunyoda brendni so'sziz tanib olish imkonini berishi sir emas. Mashxur brendlari "Apple", "Nike", "Toyota" kabi logotiplarini namoyish etib ularni faoliyatini yozma ravishda ifodalashga o'rgatish orqali dars jarayonini rang barangligini ta'minlash barobarida talabalarga o'z bizneslarini yo'lga qo'yishga ham motivatsiya shakllantiriladi.

Endigi fikr va mulohazalarimiz kompetensiya so'zining qo'llanilishi hamda uning mazmuni va mohiyati haqida bo'ladi.

Kompetensiya atamasini dastavval ingliz tilida yozilgan adabiyotlarda qo'llanilgan. Aslida lotin tilidan olingan so'z bo'lib, o'zbek tiliga "bilim", "malaka" va "ko'nikma" deb tarjima qilinadi. Chet tillarni o'qitish metodikasida "bilim", "ko'nikma" va "malaka" kabi tushunchalar tilni qo'llanilish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan omil va ta'limda natijaviylikni talab qiladi. Chet tillarni o'rghanish mobaynida talabalar tomonidan olingan bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyi ya'ni nazariy bilimlar, amaliyotda – kommunikativ muloqotda mustaqil qo'llay olishdir. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak "kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida (1955 yilda) N.A.Chomsky tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatalish jarayonida «faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida» talqin etilgan, "kompitinsiyaviy yondashuv" esa ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan.[5] Chomskiy kompetensiya "so'zlovchi va tinglovchining til haqidagi bilimlari" deb ta'rif beradi va so'zlovchida nazariy bilimlar bo'lmasa grammatik jihatdan to'g'ri gap tuza olmasligini ta'kidlaydi.

Kompetensiya, kommunikativ yondashuv va kommunukativ kompetensiya masalari bilan mashhur metodik olimlar E.I.Passov, I.L.Bim, V.I.Baydenko shug'ullanib kelgan. V.I.Baydenko kompetensiyanı ikkiga: umumiyy kompetensiya(universal) va predmet-kasbga yo'naltirilgan turlarga ajratgan.[6]

Bundan tashqari F.Sattorova kompetensiyalarga ta'rifda ikki yondashuv mavjudligini ta'kidlaydi:

- Amerikacha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarini namoyish etadi.

- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi.[7]

Kompetensiya atamasining mazmuni va mohiyati haqida kengroq gapiradigan bo'lsak, olimlar bu borada turlicha ta'rif va tushuntirishlarni ilgari surishgan. Soha va vaziyatga ko'ra kompetensiya termini farqli ifodalananadi.

R.W. Whitening fikricha kompetensiya atamasini "insonni yuqori ishlashga olib borishda namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlarni" anglatadi.[8]

Fikrimizcha, yozuv insoniyatni taraqqiyotga etaklagan omillardan biri hisoblanib, u orqali xalqlar har sohada bilim, tajriba va malaka almashib kelmoqda vaholanki bu jamiyatni taraqqiy etishiga yo'l ochib bergen vositadir. Til o'rghanishda yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd qilib borilgan ma'lumotlarni o'qish orqali til o'rghanish bir muncha oson va samarali hisoblanadi. Ingliz tili misolida oladigan bo'lsak, ingliz tilida ravon so'zlashish – o'z fikrini aniq va ravshan qog'ozda ifodalay olish degani emas. Har bir aspektni o'rghanish alohida e'tibor va mashaqqat talab etadi. Ayniqa yozuv borasida aksariyat talabar oqsaydi, shu jumladan biz tadqiqot olib borayotgan Moliya yo'nalihsining quyi bosqich talabalariga ham o'rghanilayotgan tilda (ingliz tilida) o'z fikrini chiroyli ifodalash biroz mushkul. Biz bilamizki, aniq fanga ixtisoslashgan soha vakillarida, xususan, raqamlar, statistic bazalar bilan ishlaydigan xodimlarda nutqni yozma ifodalashda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu ayniqa xorijiy hamkorlar bilan olib boriladigan yozishmalarda, akademik faoliyatda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ingliz tilini mukammal bilishlariga qaramay, yozma nutqda qiyinchiliklarga duch

kelayotganligining asosiy sababi mazkur kompetensiya ustida jiddiy tadqiqot olib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. O'z fikrini ingliz tilida tinglovchiga yozish orqali to'g'ri va oson etkazib berish uchun, avvalambor so'zlarni o'rnida q'llay olish hamda grammatik qoidalarga riosa qilgan holda yozish muhimdir.

Endigi fikr va mulohazalarimiz kompetensiya so'zining qo'llanilishi hamda uning mazmuni va mohiyati haqida bo'ladi.

Kompetensiya atamasini dastavval ingliz tilida yozilgan adabiyotlarda qo'llanilgan. Aslida lotin tilidan olingen so'z bo'lib, o'zbek tiliga "bilim", "malaka" va "ko'nikma" deb tarjima qilinadi. Chet tillarni o'qitish metodikasida "bilim", "ko'nikma" va "malaka" kabi tushunchalar tilni qo'llanilish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan omil va ta'limda natijaviylikni talab qiladi. Chet tillarni o'rganish mobaynida talabalar tomonidan olingen bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyi ya'ni nazariy bilimlar, amaliyotda – kommunikativ muloqotda mustaqil qo'llay olishdir. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak "kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida (1955 yilda) N.A.Chomsky tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida «faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida» talqin etilgan, "kompitinsiyaviy yondashuv" esa ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan.[9] Chomskiy kompetensiyaga "so'zlovchi va tinglovchining til haqidagi bilimlari" deb ta'rif beradi va so'zlovchida nazariy bilimlar bo'lmasa grammatik jihatdan to'g'ri gap tuza olmasligini ta'kidlaydi.

Kompetensiya, kommunikativ yondashuv va kommunukativ kompetensiya masalari bilan mashxur metodik olimlar E.I.Passov, I.L.Bim, V.I.Baydenko shug'ullanib kelgan. V.I.Baydenko kompetensiyani ikkiga: umumiy kompetensiya(universal) va predmet-kasbga yo'naltirilgan turlarga ajratgan.[10]

Bundan tashqari F.Sattorova kompetensiyalarga ta'rifa yondashuv mavjudligini ta'kidlaydi:

- Amerikacha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.

- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'rildi.[11]

Kompetensiya atamasining mazmuni va mohiyati haqida kengroq gapiradigan bo'lsak, olimlar bu borada turlicha ta'rif va tushuntirishlarni ilgari surishgan. Soha va vaziyatga ko'ra kompetensiya termini farqli ifodalanadi.

R.W. Whitening fikricha kompetensiya atamasi "insonni yuqori ishlashga olib borishda namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlarni" anglatadi.[12]

Har ikki "kompetensiya yoki kompetentlilik" atamalari shaxsiy xususiyatlarni va standartga erishishni xulosa qilishda ishlatalidi" deb ta'kidlaydi R.B.Brown.[13]

Kompetensiya va kompetentlilik tushunchalariga berilgan ta'riflar:

Kompetensiya	Kompetenlilik
1. R.W.White (1959) - yuqori ishlashga olib keladigan shaxsiy xususiyatlar[14]	R.E. Boyatzis (1982) va L.M.Spenser va P.S.Spenser (1993) - bu yuqori ishlash bilan tasodify bog'liq bo'lgan asosiy xususiyatlardir[15]
2. D.C.McClelland (1976) - bu vazifani samarali bajarishga olib keladigan asosiy xususiyatlar va atributlardir[16]	W.P.Birkett (1993) - muayyan kontekstda vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar kabi individual xususiyatlar[17]
3. S.R.Faerman va boshqalar. (1990) - bu loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalardir[18]	S.B.Parry (1996) - bu ishning muhim qismiga ta'sir qiluvchi tegishli bilim, ko'nikma va munosabatlar klasteridir[19]
4. Kadrlar xizmati komissiyasi (1986) - bu ish standartiga muvofiq faoliyatni amalga oshirish uchun xulq-atvor xususiyatlaridan foydalanish[20]	Yangi Zelandiya malakaviy organi (1997) - bu muayyan kontekstda belgilangan standartlarga muvofiq topshiriqni bajarishda bilim, ko'nikma va munosabatlardan foydalanish qobiliyatidir[21]

Bu ikki atamani bir xil ma'noda qo'llanilishi to'g'risidagi bahs-munozara hozirgi kunga qadar davom etmoqda. T.P.Popovaning tadqiqot ishida "kompetensiya" va "kompetentlilik" terminlari o'rtasidagi farqlarni ochib berishga harakat qilingan.[22] J.Ravennaing 1984-yilda chop etilgan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida kompetentlikka keng ta'rif berilgan. Unda "u juda

ko‘p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, ulardan ko‘pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqil. Ayrim komponentlar ko‘proq kognitiv sohaga tegishli.” V.Xutmaxerning umumlashtiruvchi ma’ruzasida kompetensiya ko‘nikma, kompetentlik, qobiliyat, mahorat kabi tushunchalar bilan bir qatorda ishlatsada, uning mazmuni hali to’la ochib berilmaganini ta‘kidlab o’tgan.[22]

Xulosa. Bizningcha, kompetensiya va kompetentlilik so‘zlarining o‘xshashligi va farqi mayjud. Kompetensiya - bir kishining belgilangan ishni bajarish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar to‘plamini ifodalovchi umumiyl tushunchadir. Bunda, shaxsning amaliyotda qanday muvaffaqiyatlari bo‘lishi kerakligi ham kompetensiyada nazarda tutiladi. Kompetentlilik esa, bir kishining belgilangan ishni muvaffaqiyatlari bajarish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini amaliyotda to‘g’ri qo’llash, o‘rganilgan bilimlarni amalga oshirish va yaratuvchi yondashuvga erishish bilan bog’liqdir. Bunda, shaxsning amaliyotda muvaffaqiyatlari bo‘lishi va o‘z darajasini oshirishi kritik ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, kompetensiya umumiyl tushuncha bo‘lib, shaxsning umumiyl qobiliyatlarini ifodalaydi. Kompetentlilik esa, shaxsning belgilangan sohada muvaffaqiyatlari bo‘lishi uchun kerakli bilim, ko‘nikma va qibiliyatlarini ifodalaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Videoselektor 2021-yil 6-may. Elektron manba: <https://kun.uz/uz/63333992>
2. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/426736?ONDATE=12.05.2022%2000>
3. Musayev, B., & Nazirova, Z. (2022). Yozuvning kelib chiqish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (11), 474-482.
4. Irisqulov M. T “Tilshunoslikka kirish”, Toshkent- “Yangi asr avlod”. – 2009. 220-225.
5. Зимняя И. А. Ключевые компетенции-новая парадигма результата образования //Высшее образование сегодня. – 2003. – №. 5. – С. 34.
6. Литонина Н. В. Формирование учебно-познавательной компетенции школьников средствами иностранного языка //Иностранные языки в школе. – 2012. – №. 6. – С. 69-74.
7. Sattorova F. Lingvistik kompetensyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishdagi ahamiyati //Uzbekistan: Language and Culture. – 2021. – Т. №. 2.
8. White R. W. Motivation reconsidered: the concept of competence //Psychological review. – 1959. – Т. 66. – №. 5. – С. 297.
9. Зимняя И. А. Ключевые компетенции-новая парадигма результата образования //Высшее образование сегодня. – 2003. – №. 5. – С. 34.
10. Литонина Н. В. Формирование учебно-познавательной компетенции школьников средствами иностранного языка //Иностранные языки в школе. – 2012. – №. 6. – С. 69-74.
11. Sattorova F. Lingvistik kompetensyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishdagi ahamiyati //Uzbekistan: Language and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
12. White R. W. Motivation reconsidered: the concept of competence //Psychological review. – 1959. – Т. 66. – №. 5. – С. 297.
13. Brown R. B. Meta-competence: a recipe for reframing the competence debate //Personnel Review. – 1993. – Т. 22. – №. 6. – С. 25-36.
14. White R. W. Motivation reconsidered: the concept of competence //Psychological review. – 1959. – Т. 66. – №. 5. – С. 297.
15. Boyatzis R. E. The competent manager: A model for effective performance. – John Wiley & Sons, 1991.
16. McClelland D. C. A guide to job competency assessment. Boston: McBer and Co //McClellandA Guide to Job Competency Assessment1976. – 1976.
17. Birkett W. P. Competency based standards for professional accountants in Australia and New Zealand: Discussion Paper. – Link Printing, 1993.
18. Faerman S. R. et al. Supervising New York state: A framework for excellence //Albany, NY: Governor’s Office of Employee Relations. – 1990.
19. Parry S. B. Just What Is a Competency?(And Why Should You Care?) //Training. – 1996. – Т. 35. – №. 6. – С. 58.
20. Kadrlar xizmatlari bo‘yicha komissiya (1986), “SASUNote16:guidanceondesigningmodulesfor accreditation, mimeo”, Standards and Assessment Support Unit, Sheffield.
21. Yangi Zelandiya malakaviy organi (1997) New Zealand Qualification Authority (1997), “New Zealand qualification authority”, Government Printer, Wellington.
22. Попова Т. П. Формирование иноязычной коммуникативной компетенции студентов 1-го курса заочного отделения языкового вуза. – 2013.–186 с